

Muhayyir ijodi badiiyati (badiiy san'atlar misolida)

Muhabbatxon Akbarova¹

Abstrakt

Musulmon Sharq adabiyotida badiiyat masalasi har doim she'riyat ahlining diqqat markazida turgan. Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste'dodi haqida so'z borganda, uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o'sha obyekti yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblangan. Shu ma'noda u yoki bu ijodkor ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan badiiy timsollar, vazn yoki qofiya vositasida bayon qilinganligi bilan birga she'riy asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning rang-barangligi, ularning asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir ijodidagi turli janrlarga oid she'r shakllarida uchrovchi badiiy san'atlar tahlilga tortilgan. She'riy baytlarda uchrovchi badiiy san'atlarni tahlil qilishda guruhlariga ajratilgan, har bir guruhga kiruvchi badiiy san'atlarning mazmuniga tavsif berilgan va she'riy parchalar orqali misollar keltirilib, parchalarning mazmuni tushuntirilib berilgan.

Kalit so'zlar: *ilmi badi', lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar, mushtarak san'atlar, zulqofiyatayn, radd, radd ul-qofiya, tavzi', mukarrar lafz, tashbeh, talmeh, tamsil, takrir, husni ta'lil, irsoli masal, laffa va nashr, mubolag'a, iyhom, tashxis, ruju', tanosub, tajohilu orif, kalomi jom, istiora, tazod, tajnis, ishtiyoq, iqtibos.*

Kirish

Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir 1842-yil Qo'qonda tug'ilgan va ushbu adabiy muhitda Furqat, Zavqiy, Muhiy kabi zabardast shoirlar bilan bir qatorda ijod qilib, devon tartib bergan shoirlardandir. Undan bizgacha bir devon (musavvada varianti bilan birga), bir bayoz va Alisher Navoiy terma devonining shoir qo'li bilan ko'chirgan varianti yetib kelgan. E'tiborli jihati shundaki, u devonini

¹ Akbarova Muhabbatxon Shavkatjon qizi – erkin izlanuvchi, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi.

E-pochta: muhabbatjonakbarova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-6367-7125

Iqtibos uchun: Akbarova M.Sh. 2024. "Muhayyir ijodi badiiyati (badiiy san'atlar misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 152-173.

o'z husnixati bilan ko'chirgan. Muhayyir ijodidan o'rin olgan turli janrdagi nazmiy parchalar shakl va mazmun jihatidan takomiliga yetgan, mag'zi butun asarlardir. Muhayyir ijodida g'azal, ruboiy, murabba', muxammas, musaddas, muammo, tarji'band janrlaridagi she'rlarni uchratamiz. Quyida yuqorida sanab o'tgan janrlarimizni badiiy san'atlar jihatidan tahlil qilamiz

Asosiy qism

"Ilmi badi'" arabcha "go'zal", "chiroyli", "ajoyib", "nodir", "nafis", "yangi paydo bo'lgan narsa" degan ma'nolarni anglatadi. Sharq poetikasining tarkibiy qismi bo'lib, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha, mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar ilmi badi'ning asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib ilmi badi' *sanoyi' ilmi* deb ham yuritiladi [Yusupova 2020, 251].

Badiiy sana'atlar she'riy matn doirasidagi vazifasiga ko'ra **3 ta** guruhga bo'linadi:

1. **Lafziy san'atlar.**
2. **Ma'naviy san'atlar.**
3. **Mushtarak san'atlar.**

Muhayyir devonida 25 dan ortiq badiiy san'atlarni ko'rishimiz mumkin. Birinchisi *lafziy* san'atlar bo'lib, nutqning ifoda usuli, xususan, so'z shakli bilan aloqador san'at hisoblanadi. Muhayyir devonida lafziy san'atlarning quyidagilari uchraydi: *zulqofiyatayn, radd, radd ul-qofiya, tavzi', mukarrar lafz.*

Zulqofiyataynda bayt misralarida ikki so'z qofiyadosh bo'lib keladi. U asosiy qofiya bilan yonma-yon kelsa, **mutakarrin** qofiya, misraning turli o'rnida kelsa, **mahjub** qofiya bo'ladi. Muhayyirning ikki g'azalida *mutakarrin* qofiya qo'llanilgan:

*Qilmading hargiz meni, ey qomati **shamshod, shod,**
Etmading ko'yingda qilsam har necha **faryod, yod.***

Ushbu baytda asosiy qofiya **shod – dod**, ikkinchi qofiya **shamshod – faryod** hisoblanadi. Ushbu qofiyalar talaffuz jihatidan ham, raviy jihatidan ham bir xil, ya'ni d harfi raviy bo'lib kelgan, bu esa she'rning ohangdorligini yanada oshirgan.

*Ey jamolingni ko'rarg'a bog' aro **gulzor zor,**
Ko'rmadim hargiz seningdek dilbari **ayyor, yor.***

Bu baytda ham **zor – yor** asosiy qofiya, **gulzor – ayyor** esa ikkinchi qofiya.

Ikkinchi lafziy san'at – **radd san'ati**. Qaytarishga asoslangan san'at bo'lib, qaysi o'rinda takrorlanishiga qarab turli nomlar bilan ataladi.

Radd ul-aruz il-al ibtido (bir baytda birinchi misra oxiridagi so'zning keyingi misra boshida takrorlanishi):

*Tamomi olam ila olamilar Xoliqi **sensan**,
Senga* sudu ziyon yo'q bo'lsalar paydou nopaydo.

Radd ul-aruz il-al hashv (bir baytda birinchi misra oxiridagi so'zning keyingi misra ichida kelishi):

*Ruh bo'lg'ondek madori jismu tan **osoyishi**,
Boisi **osoyish** o'ldi, soqiyo, ruhimg'a roh.*

Radd us-sadr il-al ajuz (bir baytda birinchi misra boshidagi so'zning ikkinchi misra oxirida kelishi):

***Qiyomat** ko'rguzub ul qaddu qomat,
Jahona jilvadin soldi **qiyomat**.*

Radd us-sadr il-al ajuz (ikki baytda kuzatiladi, birinchi bayt oxiridagi so'zning ikkinchi bayt boshida takrorlanishi):

*Ruhlar manzili – zulfi tuguni,
Quti jon lablarida paydo **sho'x**.
Sho'xlarni necha ko'rdumki emas
Chobukimni ollida aslo sho'x.*

Radd ul-qofiya – matla'dagi qofiyaning keyingi misralarda yoki maqta'da takrorlanishi.

a) matla'dagi qofiyaning ikkinchi baytda qo'llanilishi:
*Ey nabilar shahi, boshida "La'amruka" din **toj**,
Olam ayvonida senga yarashur taxt-u davoj.
Keldi "Lav laka...", "La'amruka..." senga, bo'lmadi hech
O'zha shahlarg'a muyassar bu sifat xil'atu **toj**.*

*Qilmading hargiz meni, ey qomati **shamshod, shod**,
Etmding ko'yingda qilsam har necha faryod, yod.
Ul kishikim qomating mehrin ko'ngulda asradi,
Bo'lmag'ay har necha ko'rsa sarv ila **shamshod shod**.*

b) matla'dagi qofiyaning maqta'da takrorlanishi:
*Soldimu ko'kda oy yuzig'a dog',
Hajring tunida motam tutar **chog'**.*

Sen bo'lmasang kim aylar shafolat

*Osiy Muhayyir o'tg'a kuyar **chog'**.*

d) matla'dagi qofiyaning maqta'dan oldingi baytda takrorlanishi:

Yo Rab, hamisha ayla meni muhtaloyi ishq,

*Qilg'il bu xasta jon-u dilimni **fidoyi** ishq.*

Xush ul kishiki g'ayr sari aylamay nazar,

*Aylar jahonda bor-yo'qini **fidoyi** ishq.*

Keyingi lafziy san'at turi – **tavzi'**.

Tavzi' – baytda bir tovushning bayt ichida bir necha marta takrorlash san'ati.

Honaqahda pok tiynatlar bo'lub hamsuhbatim,

Ham kunisht ichra menga hamdamlig' aylab badsirisht.

Bu baytda **h** tovushining takrorini ko'ramiz.

So'z demoq yor ollida mendin emas tarki adab,

Chunki qilmish mo'ri miskin ham Sulaymon birla bas.

Bu baytda **s** tovushi takrorini ko'rish mumkin.

Aningdek qoziyul-hojotsenkim ikki olamda

Sengadur hojat ahlidek hama hojat ravo muhtoj.

Bu baytda **h** ning takrori mavjud.

Quyidagi baytda esa **b** tovushining go'zal takrorini ko'ramiz:

Har lahza xaloyiqni jonig'a qilur bedod,

Bu qotili behoku berahm ajaldin dod.

Quyidagi baytda esa **k** tovushiga misol keltiramiz:

Necha ey Shayton xusridin elg'a ta'lim aylamak,

Kibr-u kin, kizb-u tamarrud, ujb-u kufr-u irtidod.

Muhayyir ijodida turli tovushli tavzi'larni topa olamiz. Masalan, **d** tovushi:

Qo'l uzotsam zarg'a iysoring uchundir, dilbaro,

Dema: "Donoddin ajabdur mayli dunyo aylamak".

Shuningdek, tavzi'ning eng go'zal namunasini Navoiy g'azaliga yozgan *muxammasida* uchratamiz. Alisher Navoiyning zamin qilib olingan tavzi'li baytiga munosib Muhayyir ham tavzi'li uch misra qo'shgan. Bunday tavzi'li bandlar 7 banddan iborat muxammasning har bandida kuzatiladi. Biz 5-bandini keltiramiz:

*Har qayon jonon ketar, arqosidin jonim ketar,
Bo'lmasa jonon qachon jon ichra jonim sabr etar,
Dilg'a jonon muddaodur, yo'q esa jonni netar,
Bo'lsa jonon jon chekar, gar borsa jonon, jon ketar,
Kimsag'a jonon-u jonsiz umr ne imkon erur.*

Kitobat san'ati – arab alifbosidagi harflarning shakliga qarab timsol yaratish.

*To o'zin xokrohi ahli kamol etti Amir,
G'am bila paykari majruhini nol etti Amir,
Naxl qaddini Muhayyir kabi **dol** etti Amir,
Yor vaslig'a yetushmakni xayol etti Amir,
Hazrat Sayyidi kavnayng'a aytib salavot.*

Ushbu muxammasning 3-misrasida Muhayyir Amiriy holatini yoritar ekan, Amiriy qaddi ham naxl – ko'chatdek tik edi, endi esa uning ham qaddi Muhayyirnikidek egildi – **dol** bo'ldi demoqchi. Dol arabcha harf bo'lib, ko'rinishi egik shaklda – ﺩ.

Lafziy san'atlar ichida Muhayyir ijodidagi so'nggisi – **mukarrar lafz**. Ushbu san'at "takror so'z" degan ma'noni anglatadi. Bu atama Alisher Navoiy qalamiga mansub. Takror so'zlarni munosib o'rinda mutanosib ishlatish orqali shoir mahoratiga dalolat qiluvchi san'at.

*Shodlig' istama olamdaki, haq bandalari
Ketti **bir-bir** bu jahondin bori ozor topib.*

Ushbu baytda bu dunyodan shodlik istagan asl haq bandalar shodlik o'rniga ozor topib bir-bir dunyodan o'tganlari aytilmoqda. Ular dunyodan bir marotaba o'tmadilar, bir-bir o'tdilar, ya'ni bunday haq bandalarini ko'p bo'lgan va, aslida, bu dunyoda shodlik yo'q, qancha vaqt bu shodlikni istamasinlar, bevafo dunyodan buni topib bo'lmaydi.

*Berdilar o'lg'on ko'ngullarg'a hadisingdin seni
Toza-toza ul Buxoriyu Jaloliddin hayot.*

O'lgan ko'ngillarga hayot berish uchun bizga toza-toza, asl Buxoriylar berildi.

*Tiyg'i bedoding jigarbandimg'a yolg'uz surmading,
Ey ajal, bag'rimni qilding **pora-pora resh-resh**.*

Muhayyir tarjimayi holidan bizga ma'lumki, vabo tufayli Muhayyirning ayoli va besh farzandi olamdan o'tgan. Bu baytda ajaldan shikoyat qiladi: hattoki farzandlarimga ham rahm qilmading,

qalbimni pora-pora, resh-resh – yara qilding.

Muhayyir devonida lafziy san'atlarning olti turidan unumli foydalanilgan. Yuqorida sanab o'tilgan badiiy san'atlarga misollardan tashqari ham ko'plab baytlarni topamiz. Har bir badiiy san'at baytga, bayt orqali butun she'riy janrga joziba baxsh etgan. Tushunilishini osonlashtirgan, o'qilishini go'zallashtirgan.

Badiiy san'atlarning ikkinchi katta guruhi ma'noning birlamchiligiga asoslanadi va u badi' ilmida **ma'naviy san'atlar** deb ataladi. Yoqubjon Is'hoqov bu san'at turiga shunday ta'rif beradi: "Nutqning ma'no-mohiyati bilan aloqador bo'lgan she'riy san'atlar. Ma'naviy san'at, ayniqsa, she'riyatda yuksak badiiylarning muhim omillaridan hisoblanadi. Lekin qo'llanilish darajasi har bir ijodkorning individual uslubi va mahorati bilan belgilanadi" [Исхoқoв 2006, 24]. Maqolamizning obyekti bo'lgan Muhayyir ijodida ma'naviy san'atlarning quyidagi turlari bilan tanishamiz: *tashbeh, talmeh, tamsil, takrir, husni ta'lil, irsoli masal, laffa va nashr, mubolag'a, iyhom, tashxis, ruju', tanosub, tajohilu orif, kalomi jom, istiora, nido*. Ushbu san'atlarga birma-bir to'xtalamiz.

Tashbeh. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'ati. O'xshatilayotgan narsaning yoki shaxsning sifatini yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi.

*Vah, ne jod-u, mehri yo'q **jalloddurlar ko'zlari**,
Bir kiyikcha qadri yo'q hargiz aziz bosh oldida.*

Yorning ko'zlari qanday sehr ekanki, avval sehrlab so'ng mehri yo'q jallodlar singari seni o'limga mahkum etadi. Oshiqning hatto bir kiyikchalik ham qadri yo'qki, aslo achinmaydi. Bu baytda ko'zlar jon oluvchi jallodga o'xshatilyapti, oddiygina ko'z emas, aynan jallod singari ko'z, chunki o'xshatish bermasa, boshqalar ko'zidan farq qilmaydi.

*Vohkim, ahvoli zorimg'a tarahhum qilmadi,
Nechakim chektim fig'onlar ul **dili tosh** oldida.*

Ushbu baytda ham "oldida" so'zi radif sanalsa-da avvalgi bayt bilan bir xil g'azal emas, radiflar o'xshash. Bu baytda ham yorning e'tiborsizligi tasviri aytiladi: oshiqning dilida g'am, ahvoli, holati yaxshi emas, lekin yor shunday berahmki, oshiqning shunchalik ayanchli holatini ko'rsa ham aslo unga rahm qilmaydi. Bunga birgina sabab bor: yorning dili – tosh. Toshday qattiq dil sohibasi ekanligi uchun mehribon emas.

Keyingi baytda esa oshiq ma'shuqaning vasfini qilar ekan, unga

qancha chiroyli tashbehlar topadi: yorning yuzi guldek go'zal, sochi sunbul daraxtidek uzun va serjilo, qaddi-qomati sarv daraxtidek tik va chiroyli. Lekin bu tashbehnlarni tahrir aylasa ham ular yor uchun kamdek, kamoliga yetmagan tashbehlardek, noqisdek ko'rinadi:

Kamoli nuqsdur vasfida oni aylamak tahrir

Yuzini gul, sochin sunbul, qadini sarv-u bo'ston deb.

Bunday o'xshatishlarni Muhayyirning g'azaldan boshqa janrlarida ham ko'rishimiz mumkin:

Ey buyuk rif'at, payambarlar aro oliyjanob,

Oli as'hobing – nujum, zarra – biz, sen – oftob,

Zarralar, tong yo'q agar, topsa quyoshdin fathi bob,

Har kishi as'hobing ichrakim o'zin aylar hisob,

Bermayin jon ul Muhibg'a qayda mahbub, ey habib.

Ushbu muxammas na't mavzusidagi muxammas hisoblanadi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga murojaat bilan boshlanadi: siz buyuk rif'atsiz, ya'ni yuksak martabalisiz. Siz Payg'ambarlar ichidagi eng olijanobisiz. sahobalar xuddi bir oiladir va ana shu sahobalar oilasi yulduzdirlar, biz – bir oddiy zarra, siz esa oftobsiz. Bunda sahobalar Payg'ambarimizdan keyingi to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yulduzlarga, biz ummatlar oddiy zarralarga, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam esa Quyoshga qiyoslanyaptilar, chunki agar quyosh fathi bob – ochuvchi eshik bo'lib, nurlarini zarralarga tushirmasa, tong bo'lmaydi, siz shunday oftobsizki, bizga dinimizdan ta'limot bermaganingizda biz uchun musulmlik tongi otmas edi. Biz sizni ko'rmagan bo'lsak-da har bir ummat o'zini sahobalar qatorida ko'rilishini istaydi. Ey habib, sevuvchiga dil bermasdan turib, qanday sevilish mumkin.

*Dunyo uyi yo'l uzra erur **misli rabot,***

Bo'lsa xirading istamag'il anda nashot.

*Bir **oriyat uydurur,** vatan bilma ani,*

Oqil kishi yozmagay bu manzilda bisot.

Muhayyirning ushbu ruboiysida ham tashbehning go'zal namunasini topamiz. Bu dunyo xuddi rabot kabidir. Rabot – uzoq yo'l bosuvchi karvon egalarining bir yoki bir necha kunlik dam olishlari uchun qurilgan joy, karvonsaroy. Dunyo xuddi shunday karvonsaroydir, sen aql egasi bo'lsang, bu dunyoni xursandchilik maydoni deb bilmagil. Uni aslo o'zingga vatan deb tutma. Chunki bu dunyo oriyat uyi – vaqtinchalik joy, ijara uyi. Oqil inson bunday uyda bisotini yoyuvchi savdogar bo'lmaydi.

Quyidagi ruboiyda ham Muhayyirning tashbeh qo'llash mahoratiga guvoh bo'lamiz:

Mehrobim erur egma qoshing vaqti namoz,
Yuz sajdai shukr har zamon qilsam oz.
Bilmas kishi bu ravishni juz'ahli roz.
Ey sadrnishin masnadi izz-u joh.

Sening egma qoshlaring menga namoz vaqtida mehrob vazifasini bajaradi. Men boshimni qancha sajdaga egsam ham, shukr qilsam ham ozdir. Boshqa sirdoshlardan bo'lak bu qoidani hech kim bilmaydi, izzat va martabaning yuksak darajasi, ey sadrnishin – ulug' mansab egasi budir.

Shoir she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan badiiy san'atlardan biri **talmehdir**.

Badiiy asarda biror mashhur voqea, shaxsning o'zini zikr etmasdan unga ishora qilish san'ati **talmeh** deyiladi. Muhayyir devonida talmeh san'atiga yuzlagan misollarni topamiz. Eng go'zallariga to'xtalib o'tamiz:

*Labingni ruhbaxsh ermas demoq andoqki bo'lmasdur,
Masiyho mo'jizin, Hizr hayvonini yalg'on deb.*

Ushbu baytda Iso alayhissalom va Hizr alayhissalomlarga ishora bor. Chunki Iso alayhissalom Allohning qudrati ila to'rt o'rinda o'likni tiriltirganlar, bu mo'jiza edi, Masiyho mo'jizasi deganda shunga ishora bor. Tasavvufda Hizr hayvoni barhayotlik ramzi sifatida qaraladi. Hizr hayvonida esa barhayotlikka ishora mavjud. Endi misrani tahlil qilamiz: Iso alayhissalom mo'jizasini, Hizr hayvonini yolg'on deb bo'lmaganidek, sening labingni ham ruhbaxsh demaslik to'g'ri emas, chunki u oshiq uchun hayot demakdir.

Alisher Navoiyning o'lmas obrazlari – Layli va Majnun, Farhod va Shiringa nisbatan qo'llanilgan talmehlar ham bor:

*Yuz jihatdin **Layli-yu Shirindin** ortuqsan vale,
Noz qilmoq oshiqa bu husn ila ansab senga.*

*Bahona **Layli-yu Shirin** erur **Farhod-u Majnung'a**,
Vale ma'noda sendursen murod-u muddao, yo Rab.*

Quyidagi musaddasda ham go'zal talmeh namunasini kuzatishimiz mumkin:

*Ul kechakim **Umm-u Hone'** qasridin qilding uruj,
Qoldi ostingda seni bi niylgun zotil buruj,*

*Chekmish erding ko'p aziyat din uchun aylab xuruj,
Bo'ldi oxir sabr senga "miftahul-furuj",
Assolat, ey boisi ijodi olam, Mustafo,
Marhabo, ey Sayyidi avlodi Odam, marhabo.*

Na't xarakterdagi ushbu musaddasda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga Alloh tomonidan inoyat etilgan Isro va Me'roj voqealari haqida gap boradi va Ummu Hone' ismi keladi. Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam Isroga ketadigan mahallarida qayerda ekanliklari haqida ikki xil fikr bor: birinchisi, Ummu Hone' uyida edilar degan qarash, ikkinchisi esa Ka'baga suyangen holda edilar degan qarash. Ummu Hone' shunga ishora qiladi. Ikkinchi talmeh – sayyidi Odam. Odam alayhissalomga ishora. Ya'ni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Odam alayhissalomning Qiyomatgacha keladigan avlodlarining Sayyidi hisoblanadilar. Musaddasni tahlil qilamiz: Ummu Hone' uйдan Isroga jo'nadingiz, me'rojga chiqqan vaqtingizda sizni yolg'onchiga chiqarganlarning barchasi yerda qoldi, Islom dinini bizga ta'limot berish uchun ko'p aziyat chekdingiz, bu yo'lda sabr siz uchun "miftahul-furuj" – xursandchilik kaliti bo'ldi. Assalomu alaykum, bu olamning ijodi, Mustafo sollallohu alayhi vasallam. Marhabo, Odam avlodining Sayyidi, marhabo.

Talmeh san'atiga ruboiylardan misollar:

*Hush ahli g'ariblikda vatan qilmas emish,
Oqil kishi o'z elidin ayrilmas emish.
Gar bo'lsa g'arib filmasal **Aflotun**,
G'urbatda aning qadrini el bilmas emish.*

Bu ruboiyda buyuk yunon faylasufi va olimi Aflotun – Platon hayoti bilan bog'liq voqea bor. Aflotun tabiatan yolg'izlikni xush ko'rgan, insonlarga qo'shilishni xohlamagan, shu sabab u aholidan ayrilib qolgan, uning bir qancha o'g'itlari ham boshqa faylasuflar orqaligina yetib kelgan. Ruboiyni tahlilga tortamiz: aql-u hushi bor odam g'ariblikni o'ziga Vatan tutmasin, yolg'izlik faqat Allohga xos, oqil inson o'zini eldan ayirmaydi, zero "Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar". Agar kim g'ariblikni istasa, unga Aflotunning hayoti namuna bo'lsinkim, u ham g'ariblikni, yolg'izlikni xohlagan edi, uning qadrini hech kim bilmadi, yolg'izlanib qoldi.

Tamsil. She'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi bir misrada hayotiy bir misol qilib keltirishga asoslangan san'at. Bunda mantiqiy aloqa qiyosiy bo'ladi. Devonda ham boshqa badiiy san'atlar qatori tamsil san'atiga namunalar ko'p.

Quyidagi keltiradigan ikki baytimiz bir-birini to'ldiradi, chunki bu ikki tamsil bir g'azal tarkibida birin-ketin keladi:

*Surma chekkan ko'zlaring ko'rdim qaro qosh oldida,
Qo'sh kamon sayyod yanglig' o'qlari chosh oldida.
Yo'lig'a mujgon supurgu, ko'z suv ursa, yo'q ajab,
Shoh qayon borsa borur albatta farrosh oldida.*

Bu baytda tamsil san'ati tashbeh bilan uyg'unlik hosil qilgan. Ko'zlar sayyodga – ovchiga o'xshatilyapti. Kamon – qosh, o'q, supurgi – kiprik. Tashbehlar orqali tamsilni hosil qilamiz: sening surma qo'ygan ko'zlaring qoshing bilan shunday mutanosibki, xuddi sayyod, ya'ni ovchi qo'shkamonini ilib, o'qlarini orqasiga joylashtirib olgandek. Agar shu ko'zlaring suv ursa – ko'zlaringdan birdaniga yosh chiqsa, surma ko'zingga kirib ketmasligi uchun kipriklarning supurgi bo'ladi, supurib tozalaydi, xuddi shoh qachon qayerga borsa, uni xizmatini qilib, suv sepib supuruvchi farroshdek.

*Muhayyir, ahli urfon suhbatin tut g'animatkim,
Samar xom o'lsa pishgay barg arosida vatan aylab.*

Muhayyir bu baytda o'ziga murojaat qiladi: Ey Muhayyir, ilm ahlining suhbatida bo'l, ularni o'zingga do'st deb bil. Xuddi meva hali pishmagan bo'lsa, barglar orasida pishib qolgani kabi sen ham ilm ahli orqali "pishasan", aqlan, ruhan yetilasan.

*Gar tajallidur muroding, aylagil ko'nglingni sof,
Aks ko'rguzmas qayu oyina bo'lsa gardlig'.*

Ushbu bayt nasihat ruhida bo'lib, barcha ahli inson amal qilishi kerak bo'lgan qoida desak ham yanglishmaymiz. Ey inson, sening murod-maqсадing Allohni ko'rish, uning tajallisi bo'lsa, sen avval qalbingni pok saqla, chunki Alloh ko'nglingga nazar soladi. Ko'zgu chang bo'lsa, inson o'z aksini ko'ra olmaganidek, sening ham qalbing pok bo'lmasa, Alloh diydorini ko'rish mahol ish bo'lib qoladi.

Muxammasida ham ko'rishimiz mumkin:

***Jon qolurmu gar safar etmakni jonon qilsa jazm,**
Turmagay parvona mahfilda yo'q ersa sham'i bazm,
Nazrdur boshim qayu maydonda jonon etsa razm,
Bo'lsa jonon bordurur jonim hu jonon qildi azm,
Jon ketib jonon bila jondin menga hijron erur.*

Ushbu bandning birinchi va ikkinchi misralarida tamsil san'ati mavjud: agar jonon ketmoqni o'ziga to'g'ri ish deb bilsa, menda jon qolarmidi. Xuddi majlisda sham bo'lmasa, parvona ham

bo'lmaganidek.

Keyingi san'at – takrir. **Takrir** – biror so'zni muayyan maqsad uchun takrorlash. Bu san'at turi asosiy g'oyani alohida ta'kidlash va tasvirga emotsional tus berishga xizmat qiladi.

*Gar yaxshi erur asli, qilur yaxshi amallar,
Gar bo'lsa yamon tiynati, af'oli yomondur.*

*Yetur anga mendin durud-u salom,
Zamon to zamon, Ey Basir-u Same'.*

*Bevafolig' qilma, jono, tutma tarki mehrkim,
Xo'blarg'a mehri yo'qlig', bevafolig' xo'b emas.*

*Shodlig' besh kun-u, o'zga hama g'am,
Balki bir damdur-u, besh kun ham emas.*

Husni ta'lil san'ati – go'zal asoslash, ma'naviy san'atlar ichida murakkablaridan biri. Bu haqida "Aruzi Humoyun" da quyidagicha keladi: "Bu san'at shundayki, shoir o'z she'rida biror matlabni izhor qiladi va o'z muddaosining isboti uchun shunday dalil keltiradiki, u haqiqatda uncha mutobiq emas". Shoir fikrni dalili uchun asos keltiradi, lekin bu asos ishonchli sabab bo'la olmaydi. Ular o'quvchi nazarida nozik hazildek tuyuladi.

*Oncha nozikdur labi joyi erur desam anga
Harf og'irlik qilur gar ochsa so'zga yor og'iz.*

Yorning lablari shunchalik nozikki, buni sababi nima uchunligini so'rasam, hatto gapirish uchun og'iz ochsa, harf ham bu lablarga og'irlik qilar ekan.

*Bilmadim ne vajhdin topti quyosh ko'kda zavol,
Bo'lg'onida ro'-baro' zebo nuringga vaqti tush.*

Quyosh ko'kda tush vaqtida zavol topayotgan manzaraga guvoh bo'ldim, hayron qoldim. Negaligini so'rasam, ul zebo quyoshga ro'baro kelibdi, shuning uchun quyosh zavol topib botibdi.

*Ko'zing qatl etgani yetmasmudi ishq ahlini, ey sho'x,
Ikki yondin chekib xanjar, himoyat qildi mujgoning.*

Ikki ko'zing ishq ahliga hujum qilib, qatl etdi. Ishq ahli o'zlarini himoya qilmoqchi bo'lib, ul ko'zlaringga qarshi chiqdilar, buning sababi esa ko'zingning ikki yonidagi kipriklaring himoya qilish uchun yopildi.

Irsoli masal – bayt tarkibida mashhur maqol, matal va hikmatlardan foydalanish.

Zumrai ahli hunardin bu masal mashhurdir:

“Kim qo‘li bo‘sh ishi yo‘q bekor, yuzidur qaro”.

Hunar ahlining zumrasi – guruhidan bir masal borki, kimning qo‘lida ishi yo‘q bo‘lib, bekorchi bo‘lib qolsa, uning yuzi qoradir. Chunki barcha yomon ishlar bekorchilikdan, qo‘llar bo‘shligidan kelib chiqadi.

Laff va nashr. Shoir biror narsa yoxud hodisani oldin sanaydi, so‘ng shu tartibda ularga tegishli o‘xshatishlari tartib bo‘yicha tizadi:

Bu qomat-u yuz-u ko‘z-u zulfing kabi qachon

Shamshod-u nargis-u gul-u sunbul chamanda bor.

Qomat – shamshod;

Yuz – nargis;

Ko‘z – gul;

Zulf – sunbul.

G‘aniy qilmish meni Haq fazli, oltin va yoqutim,

Bihamdillah, sarig‘ ruxsor birla ashki olimdur.

Oltin – sarig‘ ruxsor, yoqut – ashki olim. Ya‘ni Alloh o‘zi meni shunday boy qildiki, bu dunyodagi oltin oddiy sariq yuz – tanga, yoqut esa olimlarning ko‘z yoshidur.

Mubolag‘a. Badiiy timsolning harakati yoki holatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash. Ba‘zan bu bo‘rttirish real hayotda bo‘lishi yoki umuman yuz bermasligi mumkin.

Jigar ezildi-yu, oqti-yu, bo‘ldi ikki ko‘zim

Firoqi tunlari daryoi ashkima girdob.

Yorning bevafofigidan oshiq chunonam yig‘ladiki, jigarlari ezilib, undagi qonlar oqdi, ikki ko‘zi esa yordan ayro kunlarida ko‘z yoshining daryosiga girdob bo‘ldi.

Ishq o‘tig‘a o‘rtandi ajab jon ila tan,

Ko‘nglumni g‘am-u dard-u alam qildi vatan.

Bu o‘t bila oqibat kuyub o‘lsam men

Albatta kuyar harorati birla kafan

Ishq o‘ti shunchalik qattiq bo‘ldiki, oshiqning butun tanasini bu o‘t chulg‘ab oldi, oshiqning o‘limi yaqin. Agar oshiq shu o‘t bilan kuyib o‘lsa, bu o‘tning harorati oshiqning kafanini ham kuydiradi.

Tashxis. Hayvonlar, qushlar, o‘simliklar, jonsiz narsalarga insonning xususiyatlarini ko‘chirish. Bunda bu ko‘chish muayyan bir belgi bilan o‘xshash bo‘ladi.

*Zor ko'nglum so'zidin bo'lding magar ogoh, sham',
Kechalar tinmay kuyarsen tortib o'tlug' oh, sham'.*

Oshiqqa hamdam bo'lib o'tirgan sham yorning ko'ngil sirlaridan ogoh bo'ldi. Bu ko'ngil so'zlarini tinglab olovli oh tortdi. Xuddi inson boshqaning dardini eshitib bir oh tortgan singari sham ham oh tortmoqda.

*Bog' aro kirs a oyog'iga tushub sunbul duo
Aylagay, savsan chiqorib til, ochib gulzor og'iz.*

Yor bog' ichiga kirs a, sunbul egilib duo qiladi, safsan guli, ya'ni gulsapsar til chiqaradi – ochiladi, butun gulzor lol bo'lib og'zini ochadi – gullar ochiladi.

Ruju'. Shoirning she'rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan san'at.

*Ul kechakim yetti ko'k maydoniga surding Buroq,
Oy-u kun go'yo Buroqingga edi ikki janoq.
Demayin yetti falakkim, Arsh kursidin o'tub,
Shavq birla yona Rafrat taxtiga qo'yding oyoq.*

Muhayyir devonida keng qo'llanilgan badiiy san'atlardan biri **tanosub** hisoblanadi. Tanosub baytda ma'no jihatidan bir-biriga yaqin va o'zaro mutanosib so'zlarni qo'llash.

*Mard esang avval havas birla havoni o'ldurub,
Nafs amrin tutmag'il, Shayton bila qilg'il jihod.*

Ushbu baytda havas, havo, nafas va Shayton so'zlari kishini to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi yomon illatlar hisoblanadi.

*Bodag'a mayxonada zor o'lg'onim, ey mug'bacha,
Aylag'il mayno'shlar holidin ogohimg'a arz.*

Bu baytda esa boda, mayxona, mug'bacha, mayno'sh so'zlari tanosibga misol bo'la oladi.

*Ne sultonsenki, dargahingda faqr ahli kapidurlar,
Amir-u dodxoh-u hokimi farmon ravo muhtoj.*

Sulton, amir, dodxoh, hokim, farmon so'zlari bir qatorga kiruvchi so'zlar sanaladi.

*Shahlarg'a kuloh-u kamar, taxt-u toj,
Xushtur yana fath-u zafar, mulk-u rivoj.
Bir go'shada, habbazo, qanoat ahli
Haq yodida bo'lmaslar alarg'a muhtoj.*

Bu ruboiyda shoh, kamar, taxt, toj, fath, zafar, mulk so'zlari shohlik atrofida birlashadi.

Tajohilu orif. Shoir o'zi tasvirlayotgan holatni so'roq ostiga olish bilan ifodani kuchaytiradi. Fikr mazmunan ritorik so'roqqa yaqin turadi.

Kamonkash qoshlaringdin dod deymu, ko'zlaringdinmu?

Alar imdodidin javrin ziyodat qildi mujgoning.

Ushbu baytda oshiq yorning ko'zlaridan yoki qoshlaridan shikoyat qilishini so'roq ostiga oladi.

Bilmadim hushimni olg'on jilva chog'i, ey pari,

Ko'zlaringmu yo hiloli qoshlaring, yo orazing?

Bu baytda ham ko'zlar, qoshlar va yuz so'roqqa olinadi.

Kalomi jom. She'rda yoki baytda pand-nasihat, o'git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog'liq fikrlarni keltirish san'ati.

Rizq uchun ko'p sa'y etib, jon chekmakim, beshak yetar,

Ne'matikim, avval-azal kundan senga maqsum erur.

Rizq uchun ko'p sa'y-harakat qilib yelib-yuguravermagin. Beshak yetadirki, Alloh taolo taqdiri azalni bitgan kunda har bandasiga taqsim qilib qo'ygan. Undan kami ham, oshig'i ham bo'lmaydi.

Bir kun makoning yer osti bo'lg'ay

Gar bog' bo'lsun joying va gar tog'.

Inson dunyoga kelib Yaratgan taqdiriga bitgan umrni yashaydi va oxir-oqibat vafot etadi. Vafot etib borar joyi yer osti bo'ladi. Inson qanday sharoitda yashashidan qat'i nazar – so'lim go'shada yashaydimi, faqirlikda tog'da yashaydimi.

Ka'bani qilmoq ziyorat gar muyassar bo'lmasa,

Ey Muhayyir, aylagil vayron ko'ngullarni tavof.

Muhayyir, o'z-o'ziga murojaat qilib aytadi: agar umring davomida senga Ka'bani ziyorat qilish nasib qilmasa, qalbi siniq insonlarning ko'nglini ko'tar, chunki ko'ngil – Ka'badir. Ushbu misra Alisher Navoiyning "Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay, Oncha borkim Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay" baytiga mutanosib desak, adashmaymiz.

Istiora. Nozik ma'naviy san'atlardan biri bo'lib, mumtoz poetikaga doir asarlarda bu san'atning mohiyati haqida bir-biriga yaqin fikrlar bayon qilingan. Jumladan, Rashididdin Vatvot shunday

yozadi: "Istioraning ma'nosi bir narsani oriyat (omonat)ga olishdir va bu san'atning mohiyati shundan iborat: har bir so'zning haqiqiy ma'nosi bo'lib, shoir va yozuvchilar so'zni ana shu ma'no nuqtayi nazaridan naql qiladilar va boshqa bir o'rinda o'sha so'zni oriyat uchun (boshqa ma'noda) ishlatadilar, bu san'at barcha tillarda mavjud va nihoyatda go'zaldir. Agar istiora tabiiy bo'lsa, so'zga go'zallik bag'ishlaydi".

Iki turking solib fitna jahong'a,

Dil-u jon mulkini yag'mo qilibdur.

Ushbu baytda **iki turk** istiora bo'lib, ko'zga ishora qiladi.

Ey xush ulkim aks ko'rguzgaymu deb ruxsori yor,

G'ayr gardidin ko'ngul oinasini tozalar.

G'ayr gardi, ko'ngul oinasi istiora sanalib, go'zal yuzli yor begona nazari (g'ayr gardi)dan ko'ngil oynasini tozalaydi.

Nechun ko'zum uyida ul pari qilsun makon,

Kim oni ko'rgan zamon bu to'ymag'urdin nam kelur.

Ko'zim uyi istiora bo'lib kelyapti.

Vaslig'a yetmak agar bo'lsa muroding subhu shom,

*Necha kunlar sen **ul oyni** ko'yuida tutgil maqom,*

Umlar chekmak kerak javr-u jafosini mudom,

Murg'i vahshiyni qilolmas hech kim yakbora rom,

Dona-u domki qo'ying, muhtalo kam-kam bo'lur.

Ushbu bandda ul oy istiora bo'lib, go'zal yorga ishora qilmoqda.

Muhayyir devonida ma'naviy san'atlarning 14 tasiga misollar keltirdik. Keyingi badiiy san'atlar guruhi **mushtarak san'atlar** deyiladi. Bu san'at turida ham lafzga, ham ma'noga aloqadorlik bor, shuning uchun mushtarak atamasi qo'llangan. Bu nom Atoulloh Husayniy tomonidan berilgan. Muhayyir ijodida mushtarak san'atlarning quyidagi mashhurlaridan foydalanilgan: *tazod, tajnis, ishtiyoq, iqtibos, tazmin, tatabbu'*.

Tazod. Baytda ma'no jihatdan o'zaro zid so'zlarni qo'llash. Ilmi badi'ga oid manbalarda boshqa nomlar bilan ham ataladi: *mutazod, al-mutazod, mutobiqa, al-itizod.*

*Ey **begim**, topmoq visoling menga **mushkuldur** vale,*

*Shod qilmoq bir **gadoni** ko'nglini **oson** senga.*

Ushbu bayt na't g'azaldan olingan bo'lib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni bek sifatida gavdalandirmoqda va o'zini gado deb atamoqda. Men sizni ko'rishim mushkuldur, yo Rasululloh. Lekin tushimga kirib men gadoni xursand qilmoq sizga osondir. *Mushkul*

va oson so'zlari shular jumlasidandir.

*Hamdamim har lahza do'zax sorig'a tortib meni,
Qo'ymasini lekin chekib hamsuhbatim so'yi behisht.*

Bu baytda *do'zax* va *behisht* so'zlari tazod san'atini hosil qilgan. Yomon niyatdagi hamdamlarim meni *do'zax* sari tortmasin, lekin hamsuhbat bo'lgan insonlarim behisht – jannat sari yetaklashidan umidvorman.

*Ul kuniki vahmdin ahli kul bo'lur barham,
Bo'lsa noma boronlig' Odam o'g'liga ul dam,
Ba'zilar tutib **motam**, ba'zilar bo'lur **xurram**,
Anda bo'lmayin **xurram**, munda yurmag'il **beg'am**,
G'am ila bo'lub hamdam, marg birla ulfat tut.*

Muxammasning bu bandida Qiyomat kunida ba'zilar *motam*da, ba'zilar *xurramlik*da bo'lishini aytib, U kunda *xurram* bo'lish uchun bu dunyoda *beg'am* yurmaslikka chorlaydi va *bunda motam – xurram, xurram – beg'am* so'zlari tazod bo'lib kelgan.

*Afsuski keldi **shayb**, o'tib davri **shabob**,
Ellikdin oshib ketgali umr etti shitob,
Toki eshitay savtini-yu, chang-u rubob,
To chand bo'lay boda ichib mast-u xarob.*

Ushbu ruboiyda *shayb* va *shabob* so'zlari tazod bo'lib, *shayb* qarilik davrini, *shabob* o'smirlik davrini anglatgan. Bu ikki tushuncha bir-biriga zid qo'yilgan.

Tajnis. Baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlarni qo'llash.

*Dildadur **yuz** muddao, lekin **yuzung** ko'rgan chog'i
Hayratimdin til qilolmas arz birla matlab senga.*

Bu baytda "**yuz**" so'zlari tajnis bo'lib kelmoqda: sening yuzingni ko'rish uchun dilimda yuzta xohishim bor, lekin yuzingni ko'rishim bilan bu muddaoni tilimga keltirolmay lol bo'lib qolaman.

Quyida keltiradigan g'azalimizda Muhayyir "hadis" so'zini tajnis qilib olgan va 9 baytli na't mavzusidagi g'azalda hadis so'zining so'z va hadis ma'nolaridan foydalanib go'zal g'azal bitgan. Ayrim baytlarini keltiramiz.

*Zumrai insong'adur xulqi azimingdin biri
Aylamak ey rahmatan lilolamiyn shirin hadis.*

Ushbu baytda hadis so'zi "so'z" ma'nosida qo'llangan.

Ey Rasululloh, ahli insonlar sizdan olishi kerak bo'lgan buyuk xulqingizdan biri – shirin so'zdir, ya'ni kishilarga yaxshi so'z so'zlashdir.

*Har kalomikim kelib sendin yozilmish el aro,
Sidq birla derlar oni jumla ahli din "hadis".*

Ushbu misrada esa biz bilgan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning so'zlari, ishlarining jamlanmasi bo'lgan hadis nazarda tutilmoqda. Ya'ni ey Rasululloh, sizdan yozib olingan so'zlarni Islom ahli sodiqlik bilan hadis deb ataydi.

*Xandon labini ko'rgan gul g'unchasig'a boqmas,
Kim ul bu nazokatda gul g'unchasig'a boqmas.*

Ushbu baytda "gul g'unchasig'a" iborasi tajnis bo'lib kelgan. Birinchi misra tahlili: yorimning xandon labini ko'rgan gul o'z g'unchasiga qayrilib ham qaramaydi. Ikkinchi misra: mening yorim o'z nazokatidan shunchalar mag'rurki, gulg'unchasiga boqmaydi. Ya'ni birinchi misrada gul va g'uncha so'zlari alohida mazmun anglatlsa, ikkinchi misrada gulg'uncha bir mazmunni anglatyapti.

Muhayyir ruboiylarining birida tajnisni qo'llagan, bunda tajnisli so'z ham radif, ham qofiya vazifasini bajarib, tajnisli ruboiyni hosil qilgan:

*Ey zotini bir vasfi "Huvallohu Ahad",
Bevalid-u bevalad Xudovandi Ahad.
Vahdoniyatingg'a kimki bo'lsa iqror
Aytur seni "Lam yakun lahu kufuvan ahad".*

Ushbu ruboiy hamd ruboiy bo'lib, Alloh taoloning sifatleri haqidadir. Bu ruboiyni tushunish uchun "Ixlos" surasi tafsiridan foydalanamiz.

Ey zotini bir vasfi "Xuvallohu Ahad" – Alloh taoloning vasflaridan biri – "U Alloh yagonadir".

Bevalidu bevalad Xudovandi Ahad – tug'magan va tug'ilmagandir. Ya'ni Ahad so'zining yana bir ma'nosi Alloh degani. Ya'ni Alloh tug'magan va tug'ilmagandir.

Vahdoniyatingg'a kimki bo'lsa iqror – sening bir ekanligingga kimki iqror bo'lsa

Aytur seni "Lam yakun lahu kufuvan ahad" – Alloh taolo, seni aytadilarki, "Unga (Allohga) na zotida, na sifatida, na a'molida hech kim teng bo'lmagan, bo'lolmaydi ham".

Demak, ushbu ruboiyda "ahad" so'zi "yagona" va "Alloh" ma'nolarida qo'llangan.

Keyingi badiiy san'at **ishtiqoq** hisoblanadi, ushbu san'at bayt yoki jumlada bir o'zakdan hosil bo'lgan so'zlarni qo'llashga asoslanadi. Muhayyir ijodida bu san'atning namunalari talaygina.

*Ey, ko'z-u ko'ngul jon bila mushtoq yuzunga,
Ofoqlig'i shuhrai ofoq yuzunga.*

*Navo istab Navoiydek Muhayyir notavon tuzdi,
Gulistoni badoyi' ichra bulbuldek navo, yo Rab.*

*Jahonni ayladi shaytong'a xonai hasrat,
Qachonki pok vujudingni Haq ayladi mavjud.*

*To ichib behud bo'lay hijroni qilmay jonga kor,
Chunki yetmish hajr dardidin alamlar.*

Mushtarak san'atlar ichida Muhayyir ijodida uchrovchi keyingisi **iqtibosdir**. Iqtibos – Qur'on oyatlari va hadislarini adabiy asarda o'zgarishsiz keltirish san'ati. Muhayyir ijodida iqtibos san'ati boshqa san'atlardan ham yuqori turadi desak, adashmaymiz. Chunki keltirilgan iqtiboslar shunday o'rinli va go'zal keltirilganki, she'riy parchalarning xushohangligini oshirgan. Masalan,

*Sabz o'ldi sahro, qilsun tamosho,
"Arsilhu maana yarta' va yal'ab".*

Ushbu baytdagi keltirilgan iqtibos "Yusuf" surasining 12-oyatidan olingan. Ushbu oyat mazmuni quyidagicha: "Ertaga uni biz bilan yubor, yeb-ichib, o'ynab keladi. Albatta, biz uni muhofaza qiluvchilarmiz", – dedilar" [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф 2008, 502]. Ukalaridan qutulmoqchi bo'lgan Yusuf alayhissalomning akalari otalari qo'lidan olib chiqib ketish uchun hiyla ishlatadilar va ana shu gapni aytadilar. Sahrodagi quduq qa'riga tashlaydilar, shuning uchun birinchi misrada sahro haqida gap ketmoqda.

*"Ahsanuttaqviym" gulzoridursen, toza gul,
Men erurmen bulbuli sho'ridau nolon senga.*

Ushbu baytda e'tibor berishimiz kerak bo'lgan kalima "Ahsanuttaqviym" kalimasidir. "Ahsanuttaqviym" kalimasi qur'oniylar kalima bo'lib, "Tiyn" surasi 4-oyatidan olingan. Ya'ni "Batahqiq, Biz insonni eng yaxshi suvratda yaratdik" [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф 2008, 502]. Baytda bu kalima "eng go'zal yaratilgan" ma'nosida ishlatilgan va Rasulimiz sollallohu alayhi vasallamning Hayrul Halqulloh, ya'ni Allohning eng go'zal yaratig'i

vasflariga to'g'ri keladi. Bayt mazmuni: Siz "Ahsanuttaqviym" – go'zal yaratiglar gulzorining eng toza gulisiz, men esa Sizga shaydo bulbulman. Bu baytda yorni gulga, oshiqni bulbulga qiyoslash orqali tashbeh san'ati hosil qilingan.

Quyidagi muxammasida keltirilgan iqtibos esa "A'rof" surasi 23-oyatidan olingan:

*Tobishi quyosh bir yon, o't harorati bir yon,
Tursa mag'zi sar qaynab, ham ayoq kuyib chandon,
"Robbana zolamna" deb xalq bo'lsalar giryon,
Anda sen nechuk qilg'ung, ey Muhayyiri nodon,
Rahmat istasang o'zni Mustafog'a ummat tut.*

Ya'ni Qiyomat kunida Quyosh ters tarafdin chiqadi. Do'zax alangasi yoqiladi. Do'zaxdagi eng yengil jazo sifatida oyoq tagidan o't yoqilishi va uning alangasidan bosh qaynashi aytilgan. Shunday jazo kutib turgan vaqtda butun insonlar "Ey Robbimiz, biz o'zimizga zulm qildik. Agar sen bizni mag'firat qilmasang va bizga rahim qilmasang, albatta, ziyon ko'rganlardan bo'lamiz" [Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф 2008, 502] – deyishadi.

*Zindonni hech "ahabbu ilayya" demas edi,
Yusuf murodi bo'lmasa gar ul zaqanda bor.*

Ushbu baytda keltirilgan oyat ham "Yusuf" surasi 33-oyatidan olingan. Bu yerdagi "zaqan" so'zi "ilohiy tajalliga mulohaza ila nazar solish lahzasi. Jamol mushohadasi bo'lgan lazzat maqomi" degan ma'noni anglatadi. Oyat mazmuni quyidagicha: "U: "Ey Robbim, ular meni chorlayotgan narsadan ko'ra men uchun qamoq mahbubroqdir, bu (ayol)larning makrini mendan O'zing nari qilmasang, ularga moyil bo'lib, johillardan bo'lib qolaman". Baytni tahlil qilamiz: Yusuf alayhissalomga ziyofatdagi ayollar oshiq bo'lib qolgan vaqtda Yusuf alayhissalom ayollar makridan ko'ra zindonni o'zlariga mahbub deb biladilar, agar Allohning tajallisidan murodi bo'lmasa edi, "ahabbu ilayya" demas edi.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, har bir qo'llanilgan badiiy san'at ma'lum vazifa tashigan, she'riy janrlarning mazmun ko'lamini oshirish uchun xizmat qilgan.

Xulosa

Shoir she'rlarida badiiy san'atlarning har uch turi – lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga ko'plab misollar topish mumkin. Badiiy san'atlarning 20 dan ortiq turidan unumli foydalangan. Muhayyir ijodida talmeh, tashbeh, ishtiyoq, ruju', iqtibos, tavzi'

kabi san'atlar ustunlik qiladi. Ular ijodkorning g'oyaviy niyatini ochib berishga xizmat qilgan. Bunday badiiy san'atlar qo'llangan misralardan o'nlab uchratish mumkin. Har bir badiiy san'at misraga yoki baytga qo'shimcha ma'no yuklaydi. U esa she'riy janrlarning badiiy qimmatini oshirgan.

Adabiyotlar

- Атоуллоҳ Ҳусайний. 1981. Бадойиъу-с-санойиъ. (A.Rustamov tarjimasi)
Тошкент: Adabiyot va san'at.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2008. Тафсири Ҳилол.
Тошкент. Hilol.
- Деҳқонов Акрамжон. 2007. Муҳаййир ҳаёти ва ижоди. Тошкент.
- Hojiahmedov, Anvar. 1998. Badiiy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent.
158 b.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. 1990. Мумтоз бадиият малоҳати. Тошкент:
Шарқ. Hojiahmedov, Anvar. 1999. She'riy san'atlar.
- Is'hoqov, Yoqubjon. 1976. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: Zarqalam.
- Қуроноф, Дилмурод. 2007. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент: Фан.
- Ulug'ov, Abdulla. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: G'afur
G'ulom.
- Yusupova, Dilnavoz. 2019. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.
O'quv qo'llanma. Toshkent: Ta'lim-media.
- Болтабоев, Ҳамидулла. 2006. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва
талқинлар. Тошкент: ЎЗМЭ.
- Sirojiddinov, Shuhrat va boshqalar. 2018. Navoiyshunoslik. Toshkent:
TAMADDUN.
- Dehqonov, A. (2020). Arba'innavislik an'anasi va Muhayyir adabiy
faoliyati. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 2(2).
- Dehqonov, A. (2020). Saloti Mas' udiy-Muhayyir tarjimasida. *Uzbekistan:
Language and Culture*, 2(2).
- Особеноости поэзии Дилафгора, Х. (2019). Shermuhammad
Amonov. *Филологические науки*.
- Abdulhakimovich, J. N. (2015). Zamon, mezon, she'riyat.

The Poetics of Muhaiyir's poetry (in the example of ilmi badi)

Akbarova Muhabbat¹

Abstract

In the literature of the Muslim East, the issue of artistry has always been the focus of attention of poets. When it comes to the artistic potential and talent of a particular artist, it is considered not importance of what he took as the subject of the image, but how he depicted this object. In this sense, when assessing the creativity of a particular creator who wants to express the variety of artistic techniques used in the poetic work, are taken into account, as well as the fact that the artistic symbols that are expressed through the poetic weigh or rhyme. Particular attention was also paid to such issues as the role and meaning in revealing the content. In this article, the visual art encountered in various genres of Mukhayyir's poetry, the son of Muhammadqul Muhammadrasul, who lived and created in the literary environment of Kokand, were analyzed. In the analysis of this kind of art found in the poetic verses are divided into groups, and in each group visual art is described, examples are given through the poetic passages, and the meaning of the passages are explained.

Keywords: *ilmi badi', lafziy arts, ma'naviy arts, mushtarak arts, zul-qafiyatayn, radd, radd ul-qafiya, tawzi', mukarrar lafz, tashbeh, talmeh, tam-sil, takrir, husni talil, irsoli masal, laff va nashr, mubolag'a, iyhom, tashxis, ruju', tanosub, tajohilu arif, kalomi jom, istiora, tazod, tajnis, ishtiqaq, iqtibos.*

References

- Atoulloh Husayniy. 1981. Badoyi'u-s-sanoyi' (A.Rustamov tarjimasi) Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2008. Tafsiri Hilol. Toshkent. Hilol.
- Dehqonov Akramjon. 2007. Muhayyir hayoti va ijodi. Toshkent.
- Hojiahmedov, Anvar. 1998. Badiiy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent. 158 b.
- Hojiahmedov, Anvar. 1990. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: Sharq.
- Hojiahmedov, Anvar. 1999. She'riy san'atlar.

¹ Akbarova, M. – indepent researcher, the teacher of Tashkent economical and pedagogical institute.

E-pochta: muhabbatjonakbarova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-6367-7125

For citation: Akbarova M.Sh. 2024. "The Poetics of Muhaiyir's poetry (in the example of ilmi badi)". Uzbekistan: Language and Culture 1(2): 152-173.

Is'hoqov, Yoqubjon. 1976. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: Zarqalam.

Quronov, Dilmurod. 2007. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Fan.

Ulug'ov, Abdulla. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: G'afur G'ulom.

Yusupova, Dilnavoz. 2019. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Ta'lim-media.

Boltaboev, Hamidulla. 2006. Sharq mumtoz poetikasi: Manba va talqinlar. Toshkent: O'zME.

Sirojiddinov, Shuhrat va boshqalar. 2018. Navoiyshunoslik. Toshkent: TAMADDUN.

Dehqonov, A. (2020). Arba'innavislik an'anasi va Muhayyir adabiy faoliyati. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 2(2).

Dehqonov, A. (2020). Saloti Mas' udiy-Muhayyir tarjimasida. *Uzbekistan: Language and Culture*, 2(2).

Особеноости поэзии Дилафгора, Х. (2019). Shermuhammad Amonov. *Филологические науки*.

Abdulhakimovich, J. N. (2015). Zamon, mezon, she'riyat.